


ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000

JOURNAL OF MAMUN SCIENCE



Volume 3, Issue 8 **2025**



ISSN 2181-0000
Doi Journal 10.26739/2181-0000



«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

3 JILD, 8 SON

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»

TOM 3, HOMEP 8

JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

VOLUME 3, ISSUE 8



TOШKENT-2025

«MA'MUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «МА'МUN SCIENCE» | JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»
№8 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0000-2025-8>

Бош мухаррир: | Главный редактор:
Chief Editor:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
Psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Бош мухаррир ўринбосари: | Заместитель
главного редактора: | Deputy Chief Editor:

Xudoynazarov Egambergan Madrahimovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent Ma'mun Universiteti NTM

TAHRIRIY MASLAHAT KENGASHI | EDITORIAL BOARD | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

FILOLOGIYA FANLARI (INGLIZ TILI)

Axmedov Oybek Saporboyevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

O'rozboyev Abdulla Durdibayevich

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ma'mun Universiteti NTM

Kalandarov Oybek Ruzimbayevich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Yakubov Muzaffar Kamildjanovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Galiyeva Margarita Rafaellovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Nasrullayeva Nafisa Zafarovna

Filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Samarqand davlat chet tillari instituti

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

Samandarova Lola Sultanovna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

FILOLOGIYA FANLARI (RUS TILI)

Cho'ponov Otanazar Otojonovich

Filologiya fanlari doktori (DSc)
Urganch davlat universiteti

Ruzmetov Surojbek Allaberganovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (NEMIS)

Yakubova Matluba Tajibayevna

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch davlat universiteti

FILOLOGIYA FANLARI (O'ZBEK TILI)

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Ma'mun Universiteti NTM

TARIX FANLARI

Anatoliy Sagdullayevich Sagdullayev

Tarix fanlari doktori, professor; akademik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar
akademiyasining haqiqiy a'zosi

Ashirov Adhamjon Azimbayevich

Tarix fanlari doktori, professor,
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasi Tarix instituti.

Goncharov Yuriy Mixaylovich

Tarix fanlari doktori, professor
Altay davlat universiteti Rossiya

Shaydurov Vladimir Nikolayevich

Tarix fanlari doktori, dotsent
Leningrad davlat universiteti Rossiya

Abdullayev Utkir Ismoilovich

Tarix fanlari doktori (DSc),
dotsent Urganch davlat universiteti

Matkarimova Sadoqat Maqsudovna

Tarix fanlari doktori (DSc), dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Timur Pulatovich

Tarix fanlari nomzodi, dotsent
Ma'mun Universiteti NTM

Abdalov Umidbek Matniyazovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Dotsent Ma'mun Universiteti NTM

Jumaniyozova Mamlakat Tojiyevna

Tarix fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Urganch davlat universiteti

Xo'jamuratov Umarjon Rustamovich

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Urganch pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

Shoumarov G'ayrat Baxromovich

Psixologiya fanlari doktori, professor; akademik
O'zbekiston Respublikasi

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zosi

Kryukova Tatyana Leonidovna

Psixologiya fanlari doktori, professor
Kostroma davlat universiteti Belorusiya

Karpinskiy Konstantin Viktorovich

Psixologiya fanlari doktori, professor
Grodno davlat universiteti Belorusiya

IQTISODIYOT FANLARI

Ruzmetov Baxtiyar

Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ma'mun Universiteti NTM

Sherov Alisher Bakberganovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

Ma'mun Universiteti NTM

Voronsova Yuliya Vladimirovna

Iqtisodiyot fanlari nomzodi

Moskva davlat boshqaruvi universiteti

Jabborov Umarbek Rustambekovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Cho'ponov San'at Otanazarovich

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Niyazmetov Islambek Masharipovich

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

PEDAGOGIKA VA FALSAFA FANLARI

Sardor Sharifzoda O'razboy Tabib o'gli

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Matnazarov Javlanbek Kabulovich

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Adilov Zafar Yunusovich

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Slepko Yuriy Nikolayevich

Psixologiya fanlari doktori, professor

Yaroslav davlat pedagogika universiteti

Xazova Svetlana Abduraxmanovna

Psixologiya fanlari doktori, dotsent Kostroma
davlat universiteti Belorusiya

Kalandarova Madina Baxadirovna

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Ma'mun Universiteti NTM

Nurullayeva Baxtigul Bobojonovna

Psixologiya fanlari nomzodi, dotsent Ma'mun

Universiteti NTM

TIBBIYOT FANLARI

Yuldashev Baxrom Sobirjanevich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Ma'mun Universiteti NTM

Abdullayev Ravshanbek Babajonovich

Tibbiyot fanlari doktori, professor

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Esamuratov Aybek Ibragimovich

Tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Samandarova Barno Sul-tonovna

Biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Tajiyeva Zebo Baxodirovna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Nazarova Maloxat Berdiboyevna

Tibbiyot fanlari falsafa doktori (PhD)

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Xudaynazarova Salomat Ruzibaevna

Tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti

ILMIY JURNAL TEXNIK KOTIBI

Sultanov Samandar Maxmud o'g'li

Arxeolog (tadqiqotchi pedagog)

Ma'mun Universiteti NTM

Журнал включен в перечень ВАК национальных научных изданий, рекомендуемых для публикации основных научных результатов диссертаций по медицинским наукам постановлением № 01-08/3068/17 от 27 сентября 2024 г.

Page Maker | Верстка | Саифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

FILOLOGIYA

1. Safarova Svetlana Satimovna XIVA XONLIGINING G‘ARBIY SIBIR HUDUDI BILAN MADANIY ALOQALARI TARIXI.....	7
2. Машарипова Садокат Абдуллажоновна ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ОБРАЗ АМИРА ТИМУРА ПО КНИГЕ Т. ВАСИЛЬЧЕНКО “ЭМИР ТИМУР. ИСТОРИЯ, ЛИЧНОСТЬ, ВРЕМЯ”.....	14
3. Raufjon Mahmudov, Sultonova Jayrona O‘ZBEK XALQ ERTAKLARINING LEKSIK QATLAMLARI VA LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI.....	19
4. Шухрат Эркинович Худайбергенов ЯЗЫКОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ КЛАССИЧЕСКИХ КИНОКОМЕДИЙ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ РАКУРСЕ.....	26
5. Bobir Maxammadov MIKROSOFT WINDOWS OPERATSION TIZIMI TERMINLARINING MAXSUS LUG‘ATLARDA BERILISHI.....	32
6. Raufjon Mahmudov, R.Allaberganova O‘ZBEK TILIDAGI TARIXIY ANTROPONIMLAR.....	37
7. Abdullayeva Shaxnoza TERMINOLOGIYA VA ONTOLOGIYA MUNOSABATLARI.....	43
8. Raufjon Mahmudov, Nilufar Zaripova ABU RAYHON BERUNIYNING “OSOR UL-BOQIYA” ASARI VA TILSHUNOSLIK AN‘ANALARI.....	54
9. Rasulqulova Sitara Shodmonjonovna O‘G‘UZ LAHJASINING HUDUDIY XUSUSIYATLARI VA BILINGVIZM JARAYONLARI..	59
10. Raufjon Mahmudov, Dilfuza Ruzmatova JADIDCHILIK HARAKATI VA UNING XORAZM MADANIY HAYOTIDAGI O‘RNI.....	64
11. Sherzod Atajanov UMUMERONIY TILLAR BILAN BOG‘LIQ ANTROPONIMIK TIZIM.....	72
12. Safarova Svetlana Satimovna XV – XVI ASRLARDA XORAZM VOHASINING QUYI VOLGABO‘YI HUDUDLARI BILAN ALOQALARI.....	77
13. Вазира Муродова “ОИЛА” КОНЦЕПТИНИНГ КОГНИТИВ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	83
14. Вазира Муродова “ОИЛА” КОНЦЕПТИНИНГ ЭТИМОЛОГИК – СЕМАНТИК ТАМОЙИЛЛАРИ.....	89

TARIX

- 15. Matqurbonov Omonbek Odilbekovich, Jumanazarova Sadoqat Zafarbek qizi**
KARVON YO'LI BO'YLAB HARAKAT QILGAN XORAZM SAVDOGARLARINING
SHARQIY YEVROPA VA KAVKAZDAGI FAOLIYATI.....99
- 16. Ismailov Bobur Baxramovich**
XIVA XONLIGIDA SO'NGGI O'RTA ASRLARDA METALSOZLIK XOM-ASHYO
MANBALARI VA TASHQI SAVDO ALOQALARI TARIXI.....103
- 17. Palvanova Tuxtajon Palvanovna**
XORAZMDA TEATR SAN'TINING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISHI.....108

Safarova Svetlana Satimovna-

Ma'mun universiteti Filologiya kafedrasi o'qituvchisi

XV – XVI ASRLARDA XORAZM VOHASINING QUYI VOLGABO'YI HUDUDLARI BILAN ALOQALARI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17154665>

ANNOTATSIYA

XV asrdan boshlab Oltin O'rda davlatining parchalanib ketishi oqibatida Xorazm vohasi ham mazkur mintaqa siyosiy jarayonlariga tortiladi. Bu holat esa o'z navbatida Xorazmning Quyi Volgabo'yi hududlari bilan qadimdan rivojlangan tarixiy aloqalariga putur yetkazgan albatta. Ammo, yozma manbalar ma'lumotlari hamda arxeologik va numizmatik manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, XV – XVI asrlarda ham Xorazm vohasining Quyi Volgabo'yi hududlari bilan aloqalari to'xtab qolmagan. SHu jihatdan olganda, ushbu maqolada, bu mavzu bo'yicha haligacha mavjud muammoli vaziyatlar, bahsli masalalar va qarashlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Xorazm, Buyuk Ipak yo'li, Shimoliy tarmoq, Oltin O'rda, Temuriylar, Shayboniylar, Quyi Volgabo'yi, Xiva, Shamsiddin Muhammad.

Сафарова Светлана Сатимовна-

Преподаватель кафедры филологии Университета Мамуна

СВЯЗИ ХОРЕЗМСКОГО ОАЗИСА С НИЖНЕВОЛЖСКИМИ РЕГИОНАМИ В XV– XVI ВЕКАХ

АННОТАЦИЯ

Начиная с XV века, в результате распада Золотой Орды, Хорезмский оазис также оказался вовлечённым в политические процессы этого региона. Это, в свою очередь, безусловно, подорвало давние исторические связи Хорезма с Нижним Поволжьем. Однако анализ письменных, а также археологических и нумизматических источников показывает, что связи Хорезмского оазиса с Нижним Поволжьем не прекращались и в XV–XVI веках. В связи с этим в данной статье анализируются проблемные ситуации, спорные вопросы и мнения, существующие по данной теме.

Ключевые слова: Хорезм, Великий Шелковый путь, Северная ветвь, Золотая Орда, Тимуриды, Шейбаниды, Нижняя Волга, Хива, Шамсиддин Мухаммад.

Safarova Svetlana Satimovna-

Lecturer at the Department of Philology, Mamun University

RELATIONS BETWEEN THE KHOREZM OASIS AND THE LOWER VOLGA REGIONS IN THE 15TH–16TH CENTURIES

ABSTRACT

Since the 15th century, as a result of the disintegration of the Golden Horde state, the Khorezm oasis has also been involved in the political processes of this region. This situation, in turn, has certainly undermined the long-standing historical ties of Khorezm with the Lower Volga regions. However, the analysis of written sources, as well as archaeological and numismatic sources, shows that the ties of the Khorezm oasis with the Lower Volga regions did not cease even in the 15th-16th centuries. In this regard, this article analyzes the problematic situations, controversial issues and views that still exist on this topic.

Key words: Khorezm, the Great Silk Road, the Northern Branch, the Golden Horde, the Timurids, the Shaybanids, the Lower Volga, Khiva, Shamsiddin Muhammad.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

XV asrdan boshlab Oltin O'rda davlatining parchalanib, bir necha davlatlarga bo'linib ketadi. Jumladan, Oltin O'rda tub hududlarida Qozon va Astraxan xonliklari vujudga kelgan bo'lsa, Dashti Qipchoqda Shayboniy urug'idan bo'lgan hukmdorlar ta'sir doirasi uchun o'zaro kurashlar olib borardilar. Ayni shu Dashti Qipchoq Shayboniylari Temuriylar tasarrufida bo'lgan Xorazm vohasini o'z ta'siri doirasiga tortishiga harakat qiladilar. Oxir – oqibat ular o'z maqsadiga erishib, 1431 yildan boshlab Xorazm vohasi amalda Shayboniylar tasarrufiga o'tgan bo'lsada, vohada qo'ng'iroq so'fiylari sulolasiga mansub hukmdorlar boashqara boshlaydi. Temuriylar ham ancha zaiflashib qolgan bo'lsalarda tarixan iqtisodiy va madaniy jihatdan boy bo'lgan vohani yana va yana o'z tasarrufiga olishga harakat qilaverganlar. Xullas, bu hudud uchun o'zaro kurashlar XVI asr boshigacha, ya'ni keyinchalik Xiva xonligi deb nom olgan davlatning vujudga kelishiga olib keldi. Umuman olganda, XV-XVI asrlarda bir qarashda uzluksiz vayronagarchilik keltiruvchi urushlarning bo'lib turishi Xorazm vohasining azaliy madaniy aloqalar kuchli bo'lgan Quyi Volgabo'yi hududlari bilan madaniy aloqlarning to'xtab qolishiga olib kelganligini ko'rsatar edi. Ammo, yozma manbalar ma'lumotlari hamda arxeologik va numizmatik manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, XV – XVI asrlarda ham Xorazm vohasining Quyi Volgabo'yi hududlari bilan aloqalari to'xtab qolmagan.

METODLAR VA O'RGANILISH DARAJASI

Xorazmning Quyi Volgabo'yi hududlari bilan XV – XVI asrlardagi madaniy aloqalari to'g'risida ma'lumot beruvchi asl manbalar yo'q. Faqat shunday manbalar mavjudki, ular ko'proq ikkinchi bir odamdan eshitgan yoki o'rta asr boshqa manbalaridan olingan ma'lumotlarga tayangan holda yozilgan.

Bunday manbalar ichida qisman XV asrga oid ma'lumotlar beruvchi alohida qimmatga ega bo'lganlaridan mashhur fors geografi Hamdulloh Mustavfiy Qazviniyning «Nuzhat-ul-qulub» («Qalblar oromi») asari [4: 260-268; 15:506-511], SHahobiddin al-Umariyning «Kitob masalik al-absar va mamolik al-amsar» («Turli mamlakatlar davlatlari bo'ylab o'tgan yo'llar») asari [12: 21; 23:90-99; 207-208], al-Bakuviyning (XIV-XV asrlar) «Kitob talxis al-asar va ajoyib al-malik al-qahhor» («Buyuk podshoning mo'jizalari va yodgorliklari haqidagi kitobning qisqartmasi») nomli asarlaridir [3: 192]. Bu asarlarda yuqorida ta'kidlanganidek, Xorazmning XV asr boshlaridagi geografik holati, xususan yirik shaharlari, iqtisodiyoti haqida ma'lumotlar keltirish bilan birga, Xorazmni Quyi Volgabo'yi hududlari bilan bog'lovchi karvon yo'llari va ulardagi manzillar, masovalar to'g'risida hamda shaharlar, bozorlar, ishlab chiqariladigan mahsulot turlari, narx-navo, pul munosabatlari umuman, shaharlar xo'jalik hayoti to'g'risida ma'lumotlar bilan birga qisman madaniy aloqalar to'g'risida ham ma'lumotlar mavjud.

SHuningdek, temuriylar davrining SHarofiddin Ali Yazdiy [27], Abdurazzoq Samarqandiy [1], Hofizi Abro' [5], Xondamir [25] kabi mualliflar asarlarida ham XV-XVI asrlar Xorazm – Quyi Volgabo'yi munosabatlari haqida ma'lumotlar uchraydi. Bundan tashqari XV asrda tuzilgan Yevropa xaritalari ham ma'lumot beradi. Jumladan, XV asr Venetsiya kosmografi Fra-Mauroning 1459 yilgi xaritasida Xorazm va Quyi Volgabo'yi hududlarini bog'lovchi yo'llar ko'rsatilgan. Bu xarita boshqa manbalar ma'lumotlarini to'ldirib, bu shaharlarning o'rnini to'g'ri belgilashga yordam beradi [7: 23-25; 30].

XV-XVI asrlar Xorazm vohasining Quyi Volgabo'yi hududlari bilan madaniy aloqalari borasida Xiva xoni Abulg'ozixonning XVII asrda yozilgan «SHajarayi turk» asarida ham ma'lumotlar mavjud bo'lib, unda aynan Oltin O'rdaning parchalanib, Astraxan, Qozon va Sibir xonliklariga bo'linib ketishi hamda bu davlatlar hukmdorlari tarixi keltirilib o'tilishi jarayonida madaniy aloqalar haqida ham ba'zi ma'lumotlar mavjud [2: 122-125].

SHu bilan birga XVI asr ingliz sayyohi Antoni Jenkinson [9:167-191] va XVII asr muallifi Mahmud ibn Valining mashhur geografik asari – «Bahr ul-asror fi manoqib ul-ahyor» («Oliyjanob kishilarning shon-shavkati haqida sirlar dengizi») asarlarida [21] XV-XVI asrlar Xorazm xo'jalik hayoti va shaharlari tasvirlangan. Bular ikkalasida ham XV-XVI asrlar Xorazm va Quyi Volgabo'yi hududlari tarixi uzviy bog'liqlikda tasvirlangan.

Tadqiqot mavzusining manbashunosligidan farqli ravishda mavzuga oid tarixshunoslik tadqiqotlari yetarli darajada yakuniy xulosalar chiqarishga imkon beradi. Tarixshunoslik tadqiqotlari shu bilan birga mavzuning har bir davri uchun ham yetarli darajada deb xulosa chiqarish mumkin.

Tarixshunoslik tadqiqotlari asosan arxeologik, lingvistik va numizmatik manbalar tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlardan iborat bo'lib, asosan sovet davri va postsovet davri Rossiyalik yoki SSSR tarkibiga kirgan, hozirda mustaqil davlatlar (O'zbekistondan tashqari va asosan Rossiya, Qozog'iston, Turkmaniston olimlari) va xorij tarixchilari tadqiqotlari tashkil qiladi [6:198; 16:3; 20:146-148; 24; 29:54-55]. Bu tadqiqotlarda Volgabo'yi hududlarida islom dinining tarqalishida aynan Xorazm vohasining o'rni beqiyos bo'lganligi isbotlangan.

Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Xorazm vohasi va shaharlari qadimdan Buyuk Ipak yo'li sadosida ancha salmoqli o'rin egallab kelganligi yozma manbalar ma'lumotlaridan ma'lum. Mo'g'ul bosqini ham manbalarda o'ta vayronagarchiliklar keltirganligi ko'p bora ta'kidlangan bo'lsada, Buyuk Ipak yo'li savdosi, ayniqsa uning shimoliy tarmog'i mo'g'ul bosqinidan avvalgi darajasidan ham taraqqiy qilganligi nafaqat yozma manbalar ma'lumotlari bilan, balki, arxeologik tadqiqotlar natijalari orqali ham to'liq tasdiqlanadi. Bu davrda ayniqsa, SHimoliy Xorazm shaharlari jahon savdosining asosiy tranzit savdo markazlariga aylangan edilar. Ammo, XIV – XV asrlar davomida Buyuk Ipak yo'lida savdo aloqalari nisbatan sustlashib, XVI asrga kelib faoliyatini deyarli tugatadi. Bu borada mazkur jarayonlar Xorazm vohasi iqtisodiy aloqalariga qay tarzda ta'sir qilganligi masalasi mazkur maqolaning asosiy mazmunini tashkil qiladi.

Janubiy Xorazmning CHig'atoy ulusiga mansub shaharlarini (Kat va Xiva) Qo'ng'iro't So'filarining bosib olishi Amir Temurning harbiy yurishlariga olib kelgan. Ammo yuqorida ta'kidlaganimizdek, bu yurishlar ko'pgina tadqiqotlarda, ayniqsa sobiq sovet davri tadqiqotlarida Xorazmning siyosiy, iqtisodiy va madaniy inqiroziga sabab bo'lgan tarixiy hodisa sifatida baho berildi. Zero, Xorazm avvalgidek Markaziy Osiyoning shimol hududlaridagi iqtisodiy, siyosiy va madaniy mavqeini yo'qotmadi, aksincha Xorazmning savdo aloqalari ilgarigidek davom etdi. Xorazm shaharlari Buyuk Ipak yo'lida joylashganligi uchun ham ular ilgarigidek g'arb hamda sharq bilan savdo aloqalarini olib borganlar. Bu esa avvalgi adabiyotlardagi Sohibqiron yurishlari natijasida «Xorazm madaniyati yer bilan yakson qilindi», degan fikrlarning uncha to'g'ri emasligini ko'rsatadi [20:146-148].

Shuning uchun ham XIV – XV asrlarda Xorazmning ijtimoiy – iqtisodiy ahvoli qay darajada bo'lganligini to'liq bilishimiz uchun nafaqat O'rta Osiyo hamda Xorazm vohasi tarixini balki, Buyuk Ipak yo'lining ilgarigi SHimoliy tarmog'i bo'ylab joylashgan hududlar, ya'ni, SHarqiy Yevropa, Janubiy Sibir, Qora dengiz bo'ylari va Xitoy savdo aloqalari tarixini ham chuqur tadqiq qilish lozim bo'ladi.

Lekin, dastlab Xorazm savdo shaharlarining ahvoli qay darajada bo'lganligini yozma manbalar ma'lumotlari hamda arxeologik tadqiqotlar natijalarini ilmiy taqqoslash asosida tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, Amir Temurning oxirgi yurishida Urganch shahri vayron etilgan bo'lsa-da, ammo u tezda, ya'ni 1391 yildayoq bu shaharni qaytadan tiklashga ruxsat

berdi[8:490]. XV asr arab tarixchisi Ibn Arabshohning ma'lumotiga ko'ra, Urganch bu davrda ham Xorazmning eng yirik shaharlaridan biri bo'lib, "Xorazmdan karvonlar chiqib, hech qanday qo'rquvsiz, xotirjam va tinch yurib Qrimgacha borganlar" -deb yozgan edi [17:126].

Amir Temur o'zining asosiy raqibi, Oltin O'rda xoni To'xtamish bilan bo'lgan kurashda uni yengib, to Moskva ostonasigacha quvib bordi. Qaytishda Oltin O'rdaning yirik siyosiy-iqtisodiy va savdo markazlari – Saroy Botu, Saroy Berka va Hojitarxon (Astraxan) shaharlarini vayron qildi. Natijada Xitoy va Yaqin SHarq mamlakatlari bilan bog'lagan savdo yo'lining Oltin O'rda orqali o'tgan shimoliy tarmog'ida savdo aloqalari qisqarib, butun savdo qatnovi yana Movarounnahr shaharlari orqali amalga oshirila boshlandi. Ammo, bu bilan savdo aloqalari butunlay to'xtab qolmagan, albatta. Bu o'rinda sovet davri va hozirgi ba'zi tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, bu tarmoqda iqtisodiy munosabatlar butunlay barham topmadi. Buyuk Ipak yo'li Janubiy tarmog'ining mavqei SHimoliy tarmog'iga nisbatan oshgan xolos, deb xulosa chiqarishimiz o'rinli hisoblanadi. Zero, Amir Temurning ulkan, bir butun, yaxlit va markazlashgan davlat tuzishi, shu hududda siyosiy barqarorlikning mavjud bo'lishi iqtisodiyotda, ayniqsa, savdo-sotiqda ijobiy o'zgarishlarning yuz berishiga olib kelgan. Chunki bu davrda, shubhasiz, Amir Temur va uning mahalliy noiblari Xitoy va Hindistondan Markaziy Osiyo orqali Yaqin SHarq va Yevropa mamlakatlariga yo'nalgan asosiy xalqaro savdo yo'li – Buyuk Ipak yo'lini egallab, savdo karvonlari qatnovi xavfsizligini ta'minlashda muhim chora-tadbirlar ko'radilar va SHarq bilan G'arb o'rtasida savdo-sotiq va elchilik aloqalarini har tomonlama rivojlantirishga g'oyat katta e'tibor beradilar.

Xorazmdagi XV asr savdo markazlari to'g'risida tarixchilar Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy asarlari va boshqa bir qancha manbalarda bir qator ma'lumotlar mavjud. Bu manbalarda Vazir, Tirsak, Yangishahar (SHemaxa-qal'a), Adoq (Oqqal'a), Qumkend, Bag'dodik, Xiva va qayta tiklangan Urganch kabi shaharlar to'g'risida so'z yuritiladi va ularning bu davrda ham boy savdo shaharlari bo'lganligi eslatib o'tilgan [17:10]. Garchi Xorazmshohlar va Oltin O'rda davri savdo shaharlari bilan tenglasha olmasada, bu davrda Urganch, Xiva, Yangishahar (Shemaxaqal'a), Qumkend va Tirsak shaharlari yirik savdo-hunarmandchilik markazlari bo'lganligi manbalarda ko'p bora eslatiladi. Buni arxeologik tadqiqotlar ham to'la-to'kis tasdiqlaydi. Jumladan, Xiva Buyuk Ipak yo'lining shimoliy mamlakatlar bilan bog'lab turuvchi xalqaro savdo markazlaridan biri sifatida Volgabo'yi, umuman, Rus yerlari bilan aloqani kuchaytirdi. Xivaning savdo aloqalari nafaqat shimol bilan, balki undan janubda joylashgan viloyat va mamlakatlar bilan o'rta va Yaqin SHarq bilan ham keng ko'lamda rivojlandi. 1400-1401 yillarda zarb qilingan Amir Temur kumush tangalarining Xivadan topilishi uning shu davrda yirik shaharlardan biri bo'lganligining yana bir dalilidir [18:7].

Xorazmning savdo aloqalari XV-XVI asrlarda Xitoy bilan ham davom etgan. Masalan, Xivadan topilgan ieroglifli chinni idishlar, Xitoy tangalari, metall, shisha, suyak buyumlar [19:46], Urganchdan topilgan Xitoy chinni idishlari dalolat beradi [8: 486].

Xorazm savdo shaharlarining XV asr davomida o'z mavqeini yo'qotmaganligining asosiy sababi, shimoliy tarmoqda muhim o'rin tutgan Oltin O'rda shaharlari yoki Xitoygacha bo'lgan hududdagi shaharlar ham XV asr davomida o'z mavqeini yo'qotmagan edilar. Ularga bog'liq ravishda Xorazm shaharlarida ham savdo munosabatlari rivojlangan.

Hojitarxon yoki Astraxanь va Saroy (Oltin O'rdaning ikkita Saroy nomli shahri bo'lgan: Saroy al-Maxrus yoki eski Saroy va Saroy al-Jadid yoki yangi Saroy. Bu yerda Eski Saroy haqida gap ketadi) shaharlari XV asr davomida Qrimdan tortib Xitoygacha bo'lgan hududlar savdosida, va asosan Xorazm orqali O'rta Osiyo hamda Yaqin va O'rta SHarq bilan savdo aloqalarida muhim o'rin tutgan. Ayniqsa, ular Xorazmning hali ham muhim ahamiyatga ega bo'lgan Tana va Qrimga olib boradigan savdo yo'llarida asosiy o'rin tutganlar. Jumladan, diniy mazmundagi bir asarda SHayx Kamoliddin Husayn Xorazmiy o'zining haj safarini Hojitarxon va Azoq shaharlari orqali amalga oshirganligi aytiladi [22: 65].

Eronning SHeroz shahridan bo'lgan savdogar SHamsiddin Muhammad 1438 yilda Oltin O'rda poytaxti Saroy shahriga aynan Urganch orqali borgan [10:166-167].

Tadqiqotchisi S.A. Anninskiy ma'lumotlariga ko'ra, Astraxanь XV asr oxiri – XVI asr boshlarida ikkinchi rivojlanish davrini boshidan kechirgan[22: 66]. Chunki, bu shahar bir tarafdin

qulay savdo yo'llarida joylashgan bo'lsa, ikkinchi tarafdin yangi vujudga kelgan Astraxan xonligining poytaxti ham bo'lgan. XV asr boshida uzoq vaqt Oltin O'rdada bo'lgan bavariyalik sayohatchi Iogann SHiltberger ham Astraxan shahrining yirik savdo markazlaridan biri bo'lganligini ta'kidlagan edi[28: 44].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorazm to XVI asr boshigacha goh temuriylarga, goh Dashti Qipchoq o'zbeklariga bo'ysunib turgan va ular o'rtasidagi jang maydoniga aylanib qolgan. Ayniqsa, temuriy shahzodalarning Xorazm uchun bo'lgan ko'pdan-ko'p urushlaridan foydalangan Dashti Qipchoq ko'chmanchi o'zbeklarining yildan-yilga ko'payib borgan talonchilik yurishlari, Xorazm savdo markazlari uchun halokatli bo'lgan. Buning oqibatida, XVI asr davomida Xorazm asta-sekin asosiy savdo yo'llaridan chetda qola boshlagan. Dashti Qipchoqdagi ko'chmanchi o'zbek xonlari va sultonlari o'rtasidagi o'zaro kurashlarning avj olishi Xorazmni uzoq vaqtgacha Sharqiy Yevropa va Volgabo'yidan ajratib, savdoning to'xtab qolishiga olib kelgan. O'zaro feodal urushlar, hatto ichki savdo-sotiqqa ham to'siq bo'lgan. XVI asrga kelib, Buyuk Ipak yo'lining ham deyarli o'z faoliyatini to'xtatishi bilan Xorazm savdo shaharlari faoliyati ancha qisqarib, ilgari ahamiyatini deyarli yo'qotgan.

Iqtiboslar / References / Сноски

1. Абдураззоқ Самарқандий. Матла'ус-садаи ва мажма'ул-бахрайи. / Масъул муҳаррирлар: А. Қаюмов, Муҳаммад Али. – Т.: “O'zbekiston”, 2008. Ж. II, Қ.1: 1405 – 1429 йил воқеалари. – 632 б.
2. Абулғози Баходирхон. Шажарайи турк. -Т.: «Чўлпон», 1992. – Б.122-125.
3. Ал-Бакувӣ, 'Абд ар-Рашид. Китаб Талхис ал-ссар ва 'аджа'иб ал-малик ал-каххар: ("сокращение [книги о] "Памятниках" и чудеса царя могучего") / издание текста, перевод, предисловие, примечания и приложение З. М. Буниязова. – Москва: Наука, 1971. – 192 с.
4. Бартольд В.В. Дорожник от Бистами до Куня Ургенча. – Соч. Т.3. – М.: Наука, 1963. – С.260-268.
5. Бартольд В.В. Хафиз-и Аbru и его сочинения // Сочинения, Том VIII. Работы по источниковедению. М.: Наука. 1973. – С. 74-98.
6. Бахрушин С.В. Научные труды. Том 4. Очерки по истории Красноярского уезда в XVII в. Сибирь и Средняя Азия в XVI-XVII вв. – М.: Издательство Академии Наук СССР. – С. 198
7. Брун Ф. Перипл Каспийского моря по картам XIV столетия. // ЗНУ., Т.9. 1879, с.23-25 и. карти.
8. Вактурская Н.Н. Раскопки на городище Ургенч в 1952 г. //ТХЭ, т.2. – М.: Наука, 1958. – С. 476-494.
9. Дженкинсон Э. Путешествие Энтони Дженкинсона по заказу английской Московской компании через Тартарию в Азию, в 1558 году / Английские путешественники в Московском государстве в XVI веке / пер. с англ. Ю. В. Готье; отв. ред. Н. Л. Рубинштейн. – М.: Соцэкгиз, 1938. – С.167-191.
10. Заходер Б.Н. Каспийский свод сведений о Восточной Европе. – Т. 2. – М., 1967. – 213 с.
11. Ибн Арабшоҳ. Ажойиб ал-мақдур фи тарихи Таймур (Темур тарихида тақдир ажойиботлари). –Т., «Меҳнат», 1992. – 326 б.
12. Иброҳимов Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга сайёҳати. -Т., «Шарқ баёзи», 1993. – 104 б.
13. Извлечения из “Зафар-намэ” Низам-ад-дина Шами // Материалы по истории туркмен и Туркмении. Т.1. VII-XV вв. Арабские и персидские источники (далее МИТТ) // Под ред. С.Л. Волина, А.А. Ромаскевича и А.Ю. Якубовского. – С.514-523.
14. Извлечения из “Матла ас-са'дейн” Абд-ар-раззака Самарканди / МИТТ, т.1. – С.531-535.

15. Извлечения из “Нузхат ул-кулуб” Хамдаллаха Казвини // МИТТ, т.І. – С.506-511.
16. Катанов Н.О. Предания тобольских татар о прибытии в 1572 г. мухамеданских проповедников в г. Искеръ – Ежегодник Тобольского губернского музея. Вып. VII. Тобольск, 1897. – С. 51-61.
17. Кдыр尼亚зов М.-Ш. Материальная культура городов Хорезма в XIII- XIV веках. – Нукус: “Каракалпакстан”, 1989. – 176 с.
18. Мамбетуллаев М., Абдримов Р. Основные этапы развития города Хивы // Общественные науки в Узбекистане. 1997. № 7-8. – С.3-9.
19. Мамбетуллаев М.М. О торговых связях Хорезма в древности и средневековье.//Города и каравансарай на трассах Великого Шелкового пути. Тезисы докладов Международного семинара ЮНЕСКО. – Ургенч, 1991. - с.44-47.
20. Маслюженко Д.Н. Процесс исламизации населения Юга-западной Сибири в XIII–XVI вв. // Золотоордынское обозрение, 2019. Т.7. № 1. – С. 146–148.
21. Махмуд Ибн Вали. Море тайн относительно доблестей благородных (География). //Введение, пер., примеч. Указатели Б.А.Ахмедова. -Т.: «Фан», 1977. – 168 с.
22. Пачкалов А.В. Города Нижнего Поволжья в XV веке// Золотоордынская цивилизация. Вып.1. – Казань, 2008. – С. 58-70.
23. Тизенгаузен В.Г. Сборник материалов, относящихся к истории Золотой Орды. Том 2. Москва; Ленинград: Академия наук СССР, 1941.– С.90-99.
24. Хисматулин А.А. Суфизм в Центральной Азии (зарубежные исследования). Сборник статей памяти Фрица Майера (1912–1998) / отв. ред. А.А. Хисматулин. – СПб.: филологический факультет СПбГУ, 2001. – 394 с.
25. Хондемир. История монголов. От древнейших времен до Тамерлана / Пер. с перс. и авт. предисл., примеч. В. В. Григорьев. – СПб.: Типография Карла Крайя, 1834. – XII, 159 с.
26. Чекалин Ф.Ф. Нижнее Поволжье на карте космографа XV в. Фра-Маура. //ТСУАК. т.ІІ., вып.2. – Саратов, 1890, карта.
27. Шарафиддин Али Яздий. Зафарнома // Сўз боши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А. Аҳмад, Ҳ. Бобобеков. – Т.: Шарқ, 1997. – 384 б.
28. Шильтбергер Иоганн. Путешествие по Европе, Азии и Африки с 1394 по 1427 г. (перевод Ф.К.Бруна). – Баку: Елм, 1984.- С. 44.
29. Devin De Vis. Husayn Xorazmiy: 15-asr boshidagi o‘rta osiyolik so‘fiy. (ingliz tilidan tarjiması) // Tasavvuf tarixidan. – Toshkent: Fan, 1991. – В. 54-55.



ISSN 2181-9696

Doi Journal 10.26739/2181-9696

«MAMUN SCIENCE» JURNALI

ЖУРНАЛ «MAMUN SCIENCE»
JOURNAL OF «MAMUN SCIENCE»

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000